

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RIZAYEV NODIR SOBIROVICH

**BUXORO JADIDLARI IJTIMOIIY-SIYOSIY
QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Rizayev Nodir Sobirovich

Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarining falsafiy tahlili5

Ризаев Нодир Собирович

Философский анализ социально-политических взглядов

джадидов Бухары23

Rizayev Nodir Sobirovich

Philosophical analysis of socio-political views of the Bukhara Jadids45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RIZAYEV NODIR SOBIROVICH

**BUXORO JADIDLARI IJTIMOIIY-SIYOSIY
QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fal1574 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muzaffarov Firuz Davronovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Amriddinova Dilrabo Tursunovna
falsafa fanlari doktori, professor

Nazarov Qiyom Normirzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "29" noyabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (767 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "13" noyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil "13" noyabr dagi 47 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda industrial taraqqiyot, mustamlakachilik siyosati, maorif va madaniyatda orqada qolish muammolari milliy uygʻonish gʻoyalari ilgari surish, xalqning intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy ongni uygʻotish, davlatchilikni modernizatsiya qilish kabi islohotlarni zaruratga aylantirmoqda. Bu jarayonda jamiyatni qayta qurish, maorif islohoti, adolat va tafakkur erkinligiga oid fikrlar milliy oʻzlik, madaniy meros va modernizatsiya konsepsiyalarini oʻrganishda muhim manba sifatida baholanadi. Shuning uchun barqaror tinchlikni, oʻzaro hamjihatlikni taʼminlashda Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tahlil qilish, oila, axloqiy-maʼnaviy tarbiya, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, murosa falsafasiga oid ilmiy-falsafiy, maʼnaviy-maʼrifiy merosining tarixiy-falsafiy ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida tarixiy falsafiy manbalarni oʻrganish asosida hozirgi global dunyo voqeligiga baho berish, barqaror taraqqiyotni taʼminlash maqsadlariga yoʻnaltirilgan gʻoyalarni oʻrganishga oid fundamental izlanishlar olib borilmoqda. Turkiston jadidlari merosidagi ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalar, modernizatsiya modeli, jamiyat va inson munosabati, ozodlik va maʼrifat singari gʻoyalarning mohiyati va ularning ijtimoiy jarayonlarga taʼsirini ochib berish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, Buxoro jadidlarining tajribadan oʻtgan konstruktiv ahamiyatga ega konseptual qarashlarini, ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega maʼnaviy-axloqiy gʻoyalarni yoshlarni yot gʻoyalardan asrash, ularda faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish, milliy oʻzlikni anglash kabi insonparvarlik, hurfikrlilik, bagʻrikenglikka asoslangan maʼnaviy merosini qiyosiy tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotida milliy oʻzlikni tiklash, maʼnaviy uygʻonish va jamiyatni modernizatsiya qilish masalalari “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili va Uchinchi Renessans gʻoyasi asosida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlariga aylandi. “Vatanimiz fidoyilarini ulugʻlash, xotirasini abadiylashtirish boʻyicha koʻp ishlar qilyapmiz. ... Buxoro shahrida Jadidlar merosi davlat muzeyi tashkil qilinmoqda. Endi bularning mazmunini, “tirik” tariximizni xalqimizga kengroq yetkazish kerak. ... Mustaqillik qanday buyuk neʼmat ekanini, qanday kuchli ajdodlarimiz borligini elning qon-qoniga singdirish kerak. ...Jadid bobolarimiz har sohada ilgʻor edi. ... Bor tariximizni toʻgʻri yetkaza olsak, yoshlarimiz boshqa qahramon izlamaydi, yetuk bobolarimiz buning uchun tayyor namuna”¹. Shu bois, umummilliy birlik va barqarorlik uchun Buxoro jadid maʼrifatparvarlari ijtimoiy-siyosiy gʻoalarining namoyon boʻlishi va ularning yoshlar siyosiy ongi, siyosiy madaniyatini boyitishdagi pozitiv ahamiyatini, jadidlar merosi asosida taʼlim-tarbiya, davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga oid konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun kurashgan qahramon ajdodlar jasorati – ulkan ibrat maktabi. 29.08.2025. // <https://president.uz/oz/lists/view/8435>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 30-maydagi PQ-201-son “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon madaniy hayotida intellektual va ma’naviy hodisa sifatida muhim o‘rin tutgan jadid ma’rifatparvarlarining boy ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab olimlar, jumladan A.Lazzeri, A.Benningson, M.Buttino, A.Xolid, E.Olvort, I.Baldauf, X.Komatsu, S.Ershahin, A.Andijan² tomonidan olib borilgan monografik tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu tarixiy-madaniy faoliyatini o‘rganish bo‘yicha xorijda olib borilgan tadqiqotlardan Sh.Kelkeji, N.Hatuno‘g‘li, I.Yalcin, Y.Avji, N.Ibrohimiy, Temur Xo‘ja o‘g‘li³ kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor.

² Lazzerini E. Beyond Renewal. The Jadid Response to Pressure for Change in the Modern Age. Muslim in Central Asia. Expressions of Identity and Change, EdF Jo-Ann Gros, Durham London, 1992. – pp.151-166.; Bennigsen A. Lapresse et le mouvement national xets lez musulmans de russie avant 1920. – Parij, 1964.; Buttino M. Le reformisme musulman en Asie Centrale, Cahiers du Monde Russe, Yolume XXXVII (1-2), danvier duin 1996. – P.242.; Khalid A. The politics of Muslim cultural reform. Jadidism in Central Asia. –University of California press, 1998. –P.336.; Allworth Edward. Uzbek Literary Politics. –New York, 1964.–366 p.; Baldauf I. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World. Die Welt des Islams, New Ser., Vol. 41, Issue 1. (Mar., 2001), pp. 72-88.; Komatsu H. Yuzyil bashlarinda OrtaAsya‘da Turkculuk ve devrim hareketleri.– Ankara: Turhan Kitabae v yayinlari, 1993. - S.5-8.; Seyfettin Ersahin. Buhara‘da Cedidcilik-Eğitim Islahati Tartismalari ve Abdurauf Fitrat (XX. Yuzyil baslari. /Dini Araştırmalar Ocak- Nisan 1999, c. 1, s. 3. Istanbul. S. 213 -255.; Andican A. Turkestan Struggle Abroad From Jadidism to Independence. Haarlem: Sota, 2007.

³ Quelquejay Ch. The Evolution of the Muslim Nationalities of the USSR and their Linguistic Problems. – Oxford, 1967.; Hatunoğlu N. Harezmi Şuralar Cumhuriyeti ve I. Kanun- i Esasisi. Journal of History Studies. 2014. - pp.81-100.; Yarkin I. Turkisan‘mCedit (Fikir Adami Yazarve Sair AbduraufFitret) Ocak: Turk Kflilflr, 1975. - S.148.;

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida jadidchilik va uning ijtimoiy hayotdagi o'rniga oid tadqiqotlar V.Bartold, A.Shukurov, Stefan A.Dyuduanon, R.Hodizoda, A.Basirov, S.Brejneva tomonidan amalga oshirilgan. V.Valixanova, M.Vaxabov, A.Malikov, R.Xakimov⁴ esa jadidlarning adabiy-tarixiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini ilmiy izlanishlarida tadqiq qilganlar. Ya.Abdullin, D.Usmanova, N.Gafarov, K.Muxamedberdiev⁵ kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida jadidchilikning siyosiy kuch sifatida rivojlanishi, tarixiy va adabiy mohiyatini alohida o'rganishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan D.Alimova, S.A'zamxo'jaev, E.Karimov, B.Qosimov, Q.Nazarov, D.Amridinova, S.Abdivohidov, X.Ashurova, Z.Ahmedova, B.Ergashev, F.D.Muzaffarov, N.O.Safarova kabilar Markaziy Osiyoda ma'rifatparvarlarlik g'oyalarining tarixiy, badiiy, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etganlar. Xususan, E.Karimovning "O'zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti" kitobida XX asrning 70-yillarida jadidchilik harakati yangicha talqin etilgan. Shuningdek, D.T.Amridinova "Samarqand jadidchilik maktabi" (2017) mavzusidagi monografiyasi, (2005), J.Ya.Yaxshilikov, N.Ubaydullaeva "Jadidchilik va Behbudiy" (2004) mavzularida kitoblar nashr etilib, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. A. Saloxov "Buxoro ma'rifatparvarlari g'oyalarida yoshlar tolerantligini shakllantirish muammolarining falsafiy tahlili", D.Tog'ayeva "Jadidlar ma'naviy merosida oila masalasi va uning falsafiy tahlili", M.Raxmonova "Abdurauf Fitratning axloqiy-falsafiy ta'limoti" bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar⁶.

Avci Y. FitratveEserleri. – Ankara, 1997. – S.5-11.; Nabi E. The period literature of Uzbek literature: The Tajik and Uzbek Literary Prose from 1900 till 1932: The dissertation wrintten for taking (PhD).–Columbia University, 1975. – P.240.; Kocaoglu T. Indian Revolutionaries as Metaphor in Modern Uzbek Luterature.–Asia Annual, 2004. – P.4.

⁴ В.В. Бартольд. Роль конфессиональной школы в жизни Туркестана // Наука и просвещение.- 1922.- № 1.- С. 24-30; Шукуров А. Мусульманские школы в Туркестане // Наука и просвещение.- 1922.- № 1.- С. 31-35; Стефан А. Дюдуаньон. Кадымизм: элементы социологии мусульманского традиционализма в татарском мире и в Мавераннахре (конец XVIII – нач XX вв.) – Казань: Институт истории АН Татаристана; Ходизода Р. Махмудхужаи Бехбуди: Таърихи зиндаги ва тақдиритаърихи у. – Гулимурод, 1997-1998. № 10-12.; Басыров А.Х.Джадидизм: социально-философский анализ. Автореферат дисс.канд.фил. Наук.Уфа.2009.; Брежнева С.Н.Передовая культурджидов в Средней Азии в начале XX века // Вестник Оренбургского государственного университета.- 2008.- № 10(92).- С. 50-55. Валиханова В. С. Джадидизм: возникновение и сущность // История национальных политических партий России. - М., 1997.; Вахабов М. Г. О социальной природе среднеазиатского джадидизма и его эволюции в период великой октябрьской революции// История СССР.-1963.-№ 2.-С.35-56.; Маликов А. М. Самаркандские реформаторы начала XX века: ИсаходжаШиринходжаев // XXX международный конгресс по источниковедению и историографии стран Азии и Африки: к 150-летию академика В. В. Бартольда (1869—1930). Материалы конгресса. т.1. Спб.: Студия «НП-Принт», ; Хакимов Р. С. Джадидизм (реформированный ислам). - Казань: Институт истории АН РТ, 2010. - 208 с.;

⁵ Абдуллин Я.Г. Джадидизм, его социальная природа и эволюция. В кн.: Татарская просветительская мысль. – Казань, 1976.; Усманова Д.М. Тюрко-мусульманский мир: идентичность, наследие и перспективы изучения. – Казань: Изд-во Казан.ун-та, 2015. – С.428.; Гафаров Н.У. Джадидизм в Средней Азии в конце XIX в. - начале XX в.:Автореф. дис. ... канд. филос. наук.–Душанбе, 2014; Мухамедбердыев К. К вопросу изучения истории народных советских революций в Хорезме и Бухаре 1920 - 1924 гг. Труды Ин-та истории партии при ЦК КП Туркменистана. –Ашхабад, 1963. – С.184-195.

⁶ Алимова Д. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. - Тошкент: Ўзбекистон. 2000. -24.с; А'zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati: Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. - T.: Ma'naviyat, 2000. – В. 7.; Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. –Т.: Фан, 1975; Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – T.: Ma'naviyat, 2002. – 238 b; Nazarov.Q. O'zbek falsafasi.Toshkent-O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti.2013.y-166.B.; Амридинова.Д. Самарканд жадидчиликл мактаби. Монография. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти ДУК. - 2017, 124 бет.; Абдивоҳидов С.А. Жади́дчи́лик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий жиҳатлари ва ҳозирги замон: Фалс. фан. ном. ... дисс. автореф.

Yuqorida zikr etilgan olimlar tomonidan Buxoro jadidlari ma'naviy-axloqiy merosining yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati, ularning insonparvarlik, ma'rifatparvarlik qarashlari tadqiq etilgan. Jadid ma'rifatparvarlari merosida ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy g'oyalarining talqiniga oid yangi tadqiqotlarni davom ettirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan mazkur dissertatsiyada XX asrning boshlarida Buxorodagi jadid ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarning namoyon bo'lishini alohida fenomen sifatida tadqiq etishga, ijtimoiy farovonlik va ma'naviy yuksalish kabi ma'rifatparvarlikka doir g'oyalarning ijtimoiy ahamiyatini asoslashga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026-yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yangilanayotgan islohotlardagi konstruktiv ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jadidchilik harakatining vujudga kelishiga ta'sir qilgan tarixiy-madaniy sharoitlar va Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;

Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va mafkuraviy tamoyillarini ochib berish;

Fitrat, Sadridin Ayni, Abdulvohid Munzim kabi Buxoro jadidlarining g'oyalarida millat uyg'onishi va jamiyat islohoti konsepsiyalarini tahlil qilish;

jadidlar asarlarida erkinlik, adolat, ma'rifat, islohot kabi kategoriyalarning falsafiy mazmunini aniqlash;

islohotlar davrida yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda jadid namoyandalari qarashlarining ahamiyatini asoslash;

Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarining "ijtimoiy davlat" barpo etishdagi ahamiyatini ochib berish;

Jadid ma'rifatparvarlarining ijtimoiy adolat va ma'rifatparvarlik g'oyalarining Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

– СамДУ, 2020; Ашурова.Х.С. Самарқанд жадидларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари (xx асрнинг биринчи чорағи): Фалс.фан.ном. ...дисс.автореф. – СамДУ, 2020; Ахмедова З.А. Ahmad Donishning falsafiy g'oyalari. // O'zbek falsafasi tarixi. III jild. Toshkent: "Muharrir". – 2000. – B. 162.; Эргашев Б.Х. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма. Идеология молодобухарцев: дисс. Д-ра философ. наук. - Бухара. 1993. - 314 с; Музаффаров Ф.Д. Имом Ғазолий ва Шарқ перипатетик фалсафаси. Бухоро: Дурдона, 2022. – 232 б.; Сафарова Н.О. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи. Фалс. фанл. номзоди илмий дар. олиш учун ёзилг. диссертация. Тошкент: 2002. – 149 б; Yaxshilikov J., Ubaydullayeva N. Jadidchilik va Behbudiy. –T."Fan".2004.45-bet.; Saloxov.A.Q. Buxoro ma'rifatparvarlari g'oyalarida yoshlar tolerantligini shakllantirish muammolarining falsafiy tahlil: Fals.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati– Buxoro, 2022. – B.42.; Tag'oyeva.D. Jadidlar ma'naviy merosida oila masalasi va uning falsafiy tahlili: Fals.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati– Buxoro, 2022. – B.38; Raxmonova.M. Abdurauf Fitratning axloqiy-falsafiy ta'limoti: Fals.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati– Buxoro, 2022. – B.36

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro jadid ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ilmiy-ma'naviy merosi va u bilan bog'liq nazariy manbalar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini XX asr boshlaridagi Buxoro jadidlarining milliy ong, jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va islohotlar haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarining falsafiy mohiyati, tamoyillari va konseptual asoslarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Buxoro ma'rifatparvar jadidlarining oila, axloqiy-ma'naviy tarbiya, o'qituvchi sha'ni va qadr qimmatini, huquqiy savodxonlik, tabiatni asrash kabi ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda isloh qilishda Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat kabi axloqiy sifatlarni takomillashtirishda, iroda va matonat, kabi individual fazilatlarni rivojlantirishda, halollik, vijdonlilik, ilm-fan va texnologiyalardan foydalanish va ijtimoiy-ekologik mas'uliyat kabi baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda ko'nikmalarni shakllantirishda foydalanish imkoniyatlari asoslab berilgan;

Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi qissasi" asaridagi ma'rifatparvarlikka asoslangan (jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ilm, tafakkur erkinligi, adolat, inson sha'ni va or-nomusini ulug'lash) tamoyillarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, turli diniy e'tiqod va madaniyat vakillariga nisbatan bag'rikenglik munosabatlarini tartibga solish, millatlararo muloqotni mustahkamlash hamda ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda ma'rifatning hal qiluvchi o'rni ochib berilgan;

Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriyning davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va xalqaro diplomatik aloqalarni mustahkamlashga oid ijtimoiy-siyosiy qarashlari va murosa falsafasi, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan falsafiy-axloqiy g'oyalari Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga xalaqit berayotgan konservativ va reaksion hodisalar (befarqlik, diniy mutaassiblik, g'araz va adovat)ning oldini olishda muhim omil ekanligi dalillangan;

Buxoro jadidlari – Fitrat, Sadridin Ayniy, Munzim kabi ma'rifatparvarlarning insonparvarlik, hurfiylik va bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan ilmiy-falsafiy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosi asosida axborot urushi kuchaygan murakkab geosiyosiy sharoitda yoshlarni yot g'oyalar va mafkuraviy tahdidlardan asrash, ularda tanqidiy tafakkur va fuqarolik mas'uliyatiga tayangan faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishga qaratilgan ta'limni milliy va jahon ilm-faniga uyg'unlashtirish, kitobxonlik orqali ma'rifat tarqatish kabi mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Buxoro jadidlarining ma'rifat, axloqiy qadriyatlar, huquqiy ong, milliy identiklik, bag'rikenglik va ustoz-shogird an'anasiga asoslangan qarashlaridan zamonaviy talablarga mos ma'naviy-axloqiy tarbiyaning konseptual mexanizmlari va ularni yoshlar tarbiyasiga tatbiq etish yo'nalishlari takomillashtirilgan;

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadid ma'rifatparvarlar g'oyalaridan jamiyatning ijtimoiy-siyosiy vaziyatiga moslashish jarayonida foydalanishning g'oyaviy-ma'rifiy tamoyillari ishlab chiqilib, mazkur tamoyillarni maktab, oliy ta'lim, mahalla va yoshlar tashkilotlari faoliyatida tarbiyaviy-axborot yondashuvi asosida qo'llashga doir ("Jadidlar saboqlari" ma'rifiy mashg'ulotlar, raqamli kontent yaratish, ekologik aksiyalar) konkret metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Buxoro jadidlarining ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, huquqiy ong va bag'rikenglik tamoyillari "Uchinchi Renessans" g'oyasi va "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyilini amalda ro'yobga chiqarishda hamda ma'naviy-axloqiy tarbiya siyosatini takomillashtirishda (yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish va raqamli makonda ongli ishtirokini ta'minlash) muhim omil ekanligi asoslab berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan mavzuga Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ilmiy konsepsiya sifatida tizimlashtirishda, milliy uyg'onish, ma'rifat va jamiyatni modernizatsiya qilishda, erkinlik, adolat, taraqqiyot, davlat-jamiyat munosabatlarini baholashda, jadidlar merosining Yangi O'zbekiston jarayonlaridagi g'oyaviy-metodologik o'rnini asoslovchi ilmiy xulosalar ishlab chiqishda, millatparvar, intellektual salohiyatli avlodni shakllantirish, ma'naviy-axloqiy yuksaltirish, tarbiya tizimidagi ishlarni muvofiqlashtirishda nazariy metodologik asos sifatida, shuningdek, yoshlar ongida tarixiy xotira shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy-madaniy omillarni targ'ib etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan ma'naviy-ma'rifiy siyosat, yoshlar tarbiyasi, milliy g'oya va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida, o'quv dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy loyihalar uchun metodik tavsiyalar, milliy uyg'onish merosini huquqiy-siyosiy islohotlar bilan uyg'unlashtirishga oid amaliy takliflar, jamiyatda ma'naviy immunitetni kuchaytirish, yoshlar ma'rifiy ongini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy xulosalar taqdim etishda, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid profilaktik tadbirlar va ma'naviy targ'ibot faoliyatida, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining buyuk mutafakkirlarning ilmiy va diniy merosini o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ularning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, ommaviy axborot vositalarining ko'rsatuvlar va media materiallarini tayyorlashda, shuningdek, ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Falsafa", "O'zbekistonning eng yangi tarixi",

“Ma’naviyatshunoslik” kabi maxsus kurslarning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Buxoro ma’rifatparvar jadidlarining oila, axloqiy-ma’naviy tarbiya, o’qituvchi sha’ni va qadr qimmat, huquqiy savodxonlik, tabiatni asrash kabi ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda isloh qilishda Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat kabi axloqiy sifatlarni takomillashtirishda, iroda va matonat, kabi individual fazilatlarni rivojlantirishda, halollik, vijdonlilik, ilm-fan va texnologiyalardan foydalanish va ijtimoiy-ekologik mas’uliyat kabi baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda ko’nikmalarni shakllantirishda foydalanish imkoniyatlari yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalaridan O’zbekiston mahallalari uyushmasining “Fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish borasidagi sa’y-harakatlari dasturi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan. (O’zbekiston mahallari uyushmasi huzuridagi Mahalla Akademiyasining 2025-yil 7-martdagi 01-03/05-son ma’lumotnomasi). Natijada, fuqarolar yig’inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini royobga chiqarish hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o’zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qilgan;

Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi qissasi” asaridagi ma’rifatparvarlikka asoslangan (jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ilm, tafakkur erkinligi, adolat, inson sha’ni va or-nomusini ulug’lash) tamoyillarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, turli diniy e’tiqod va madaniyat vakillariga nisbatan bag’rikenglik munosabatlarini tartibga solish, millatlararo muloqotni mustahkamlash hamda ijtimoiy birdamlikni ta’minlashda ma’rifatning hal qiluvchi o’rniga doir ishlab chiqilgan ilmiy amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyatida jumladan, 2024-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo’yicha chora tadbirlar dasturining VI yo’nalishida belgilangan “Buyuk allomalar va ma’rifatparvar jadidlarning ma’naviy me’rosini chuqur o’rganish, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ’ib qilishga doir chora-tadbirlar” 42-bandida “Buyuk alloma va ma’rifatparvar jadidlar hayoti va faoliyatini chuqur o’rganish, boy ma’naviy va madaniy meroslarni asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ’ib qilish” mavzusida targ’ibot ishlarini tashkil etish va o’tkazishda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 7-martdagi 10/109 son ma’lumotnomasi). Natijada, Buxoro jadidlarining ijtimoiy siyosiy qarashlarini ilmiy tadqiq etishga va qarashlaridan yoshlar siyosiy ongini yuksaltishga xizmat qilgan;

Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriyning davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va xalqaro diplomatik aloqalarni mustahkamlashga oid ijtimoiy-siyosiy qarashlari va murosa falsafasi, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan falsafiy-axloqiy g’oyalari Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga xalaqit berayotgan konservativ va reaksiyon hodisalar (beparqlik, diniy mutaassiblik, g’araz va adovat)ning oldini olishda muhim omil ekanligiga oid taklif va tavsiyalardan O’zbekiston Yoshlar ittifoqi yillik ish rejalari va dasturlarida

belgilangan loyihalarini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2025-yil 26-fevraldagi 04-13/177-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yosh avlod ma’naviy olamini boyitish, mafkuraviy immunitetini oshirishda ma’rifiy dunyoqarash hamda falsafiy mushohadasini kengaytirishga xizmat qilgan;

Buxoro jadidlari – Fitrat, Sadriddin Ayniy, Munzim kabi ma’rifatparvarlarning insonparvarlik, hurfikrlilik va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan ilmiy-falsafiy hamda ma’naviy-ma’rifiy merosi asosida axborot urushi kuchaygan murakkab geosiyosiy sharoitda yoshlarni yot g‘oyalar va mafkuraviy tahdidlardan asrash, ularda tanqidiy tafakkur va fuqarolik mas’uliyatiga tayangan faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishga qaratilgan ta’limni milliy va jahon ilm-faniga uyg‘unlashtirish, kitobxonlik orqali ma’rifat tarqatish kabi mexanizmlariga doir ilmiy-nazariy xulosalar va takliflardan Buxoro viloyati teleradiokanalining “Assalom, Buxoro”, “Buxoro bo‘ylab”, “Najot ta’limda” ko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 18-apreldagi 72-son ma’lumotnomasi). Natijada, yosh avlodning ma’naviy olamini boyitishga, mafkuraviy immunitetini oshirishga, jamiyatda farovonlikka erishishning asosiy kaliti sifatida ilm-ma’rifatda ekanligi to‘g‘risidagi ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprotasiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 131 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotasiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlari shakllanishining obyektiv va subyektiv omillari”** deb nomlangan birinchi bobida Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tadqiq qilishning metodologik masalalari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Buxorodagi ijtimoiy shart-sharoit va amirlik tuzumining diniy-

feodal, konservatizmga asoslangan qoloq boshqaruv uslubining eskirganligi, dunyoda taraqqiy topgan millatlardan orqada qolayotganligi pirovardida buning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bo'lganligi asoslab berilgan.

Buxoroda chorizmning mustamlakachilik siyosatining millat taraqqiysiga zidligi, amirlik tuzumning tubdan eskirganligi, ijtimoiy-madaniy hayotdagi turg'unlik, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy adolatning yo'qligi, xalqning noroziligi kabi *obyektiv* omillar va Buxoro amirligi boshqaruvining eskilikka sodiqligi, amirlikdagi mutaassiblik, konservativ diniy ulamolarning har qanday yangilanishga qarshiligi, ta'lim tizimining tanazzuli va qadimiy dasturlarga asoslanganligi, aholining savodsizligi kabi *subyektiv* omillar ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, ijtimoiy adolat va milliy davlatchilik, ta'limni isloh etishga qaratilgan zamonaviy maktablarni ochish, xalqni bilimli qilish, siyosiy ongini o'stirish, o'zligini anglashga, zulm va adolatsizlikka qarshi tura olishga kuch va iroda uyg'otadigan qudratli g'oyaviy, mafkuraviy harakatning vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Tadqiqotchi fikricha, Buxoro jadidchiligining vujudga kelishi tarixiy ildizlarini tahlil etishda Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Mirzo Siroj Hakimning "Tuhafi ahli Buxoro" (Buxoro ahliga tuhfa) va Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi qissasi" asarlariga tayangan. Shuningdek, D.Kimmagening "Markaziy Osiyo: Jadidizm - eski an'analarning yangilanishi" mavzusidagi tadqiqoti, A.Xalidning "Musulmonlarni madaniy isloh qilish siyosati: Markaziy Osiyoda jadidchilik" asari va A.Andijoniyning "Chet elda Turkiston kurashi (jadidchilikdan mustaqillikgacha)" asarlari qiyosiy tahlil etilib, jadidlarning ijtimoiy-ma'naviy, falsafiy qarashlari hamda ijtimoiy siyosiy go'yalarini o'rganishdagi metodologik ahamiyati asoslangan⁷.

Dissertant Buxoro jadidlarining XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarining o'ziga xos xususiyatlari borasida fikr yuritib, umuman Turkiston jadidlarining umumiy maqsadlari bir xil bo'lsa-da, amirlikda, xonliklarda va bekliklarda turli tarixiy shart-sharoit, mintaqaviy xususiyatlari o'zaro farq qilganligi, Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat ekanligini asoslab bergan:

Birinchidan, Buxoroda o'lkaning boshqa hududlariga nisbatan diniy-feodal qarashlar ustuvor bo'lib, ulamolar toifasi yangiliklarga "bid'at", jadidlarni "bid'atchi"lar sifatida xalq orasida yomonotlig' qilar edilar;

Ikkinchidan, Qo'qon yoki boshqa hududlarda jadidlarning g'oyalari, islohotlarga targ'ibotlari uchun teatr, matbuot, nashriyotlar, jurnal, gazetalardan foydalanishda imkoniyatlar kengroq edi.

1917-yilda tashkil topgan "Yosh buxoroliklar" jamiyatining siyosiy talablar bilan chiqishi, shuningdek, 1920-yilda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgani, amirlik tuzumiga qarshi kurashishda ruslarning kuchiga tayangan. Buxoro Respublikasi rahbariyati, asosan, jadid ma'rifatparvarlari jamiyatni isloh qilishni, savodsizlikni tugatish, yangi usul maktablari ochish, madrasalardagi eski uslublarni

⁷Turkestan struggle abroad (from Jadidism to independence). / by A. Ahat Andican. - Haarlem., SOTA, 2007. - PP.77

yangilash, dunyoviy fanlarni o'qitishni yo'lga qo'yish, taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalarini joriy etish, yoshlarni rivojlangan mamlakatlarga o'qishga jo'natish, saylov masalalarini ko'tarish, ijtimoiy adolat, erkin jamiyat barpo etish, islom omiliga tayanishda turli xurofot, mutassiblik, illatlaridan voz kechishga da'vat etgan.

Tadqiqotda Buxoro jadidlarining qarashlari zahirida zamonaviy ta'lim-tarbiyani isloh qilish va boshqaruv sohasini tartibga solish ekanligi asoslangan. Chunonchi:

Birinchidan jadidlar ta'lim dindan holi bo'lishini diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar olinish tarafdorlari edilar. Bu borada 1908 yil oktyabrda Abdulvohid Munzim tomonidan o'z uyida tojik tilida dars beruvchi ilk usuli jadid maktabi ochadi va bu maktabning o'quvchilari ko'pgina natijalarga erishadi hamda faollar tomonidan olqishlanadi⁸.

Ikkinchidan 1909-yil dekabrda Sadriddin Ayniy boshchiligidagi bir guruh ma'rifatparvarlar, "Tarbiyai atfol" yashirin jamiyatini tuzadi. Ular Termiz, Karki, Yangi Buxoro va G'ijduvonda jamiyatning 28 ta shaxobchasida ilmga tashna yoshlarga moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab, ularni Rossiya va Turkiyada o'qishga maxsus e'tibor qaratdi⁹.

Uchinchidan ular ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish tarafdori bo'lib, ta'lim va imkoniyatlardan teng foydalanishga chaqirdilar¹⁰.

To'rtinchidan jadidlar qonun ustuvorligiga, mas'uliyatga, qarorlar qabul qilishda xalq fikri inobatga olinishini ta'kidlardilar. Ular barcha shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan yanada demokratik va vakillik tizimini yaratishni maqsad qilgan¹¹.

Dissertant Buxoro jadidlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy adolat va tenglikning asosiy tamoyillarini quyidagicha tasniflagan:

- Ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Ayollarning ta'lim va imkoniyatlarini kengaytirish hamda ular ijtimoiy hayotda faolliklarini oshirish;
- Jadidlar odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki nasabiga ko'ra emas, balki qobiliyatlari va yutuqlariga qarab mukofotlanadigan tizimni qo'llab quvvatlash;
- Qonun ustuvorligi va mas'uliyat – jadidchilar konstitutsiyaviy hukumat o'rnatish va qonun ustuvorligini ta'minlashga chaqirdilar;
- Ishtirokchilik boshqaruvi - jadidlar qarorlar qabul qilish jarayonlarida xalq ishtirokini targ'ib qilgan¹².

⁸ Айний, Садриддин. Асарлар. 8 томлик. 1-том. – Тошкент: “ЎзССР давлат Бадий адабиёт нашриёти”, 1963. – Б.411

⁹ Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Тошкент: “Фан”, 1997. – Б.174

¹⁰ Abdirashidov Z.Sh. Abdurauf Fitrat va Buxoroda jadidchilik. // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2021. - №3. – B.30-53

¹¹ Шарипов Р., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистон халқлари сиёсий-ҳуқуқий таълимотлари тарихи. – Тошкент: “ТДЮИ”, 2004. – Б. 317.

¹² Abdirashidov Z.Sh. Abdurauf Fitrat va Buxoroda jadidchilik. // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2021. - №3. – B.30-53

Jadidlar olib borgan ijtimoiy-siyosiy faoliyat strategiyasi: *zamonaviy ta'lim; dunyoviylik; gender tengligi; konstitutsiyaviylik; milliy o'zlik; ijtimoiy adolat; siyosiy ishtirok kabi* demokratik islohotlardan iborat edi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Buxoro amirligidagi qoloqlik va jaholat, aholining ayanchli ahvoli, nafaqat hududni balki butun Turkistonning jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatga nisbatan munosabatning o'zgarishi va bunday og'ir fojeali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o'z zamonasining ilg'or ziyoli, munavvarlaridan fikr-mulohazalar paydo bo'ldi. Xullas, jaholat uyqusidan uyg'onish tarixiy zaruriyatiga, rivojlanishning obyektiv talab va ehtiyojiga aylandi. Buxoro jadidlarining tarixiy-falsafiy merosida ta'lim-tarbiya, odamlar dunyoqarashini o'zgartirish, shuningdek, boshqa din vakillariga o'zaro hurmat, murosayi madora (konsensus) kabi boy falsafiy qarashlarini o'rganish va kelajak avlodga yetkazish ilm sohasi vakillarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarining g'oyaviy asoslari va mafkuraviy tamoyillari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro ijtimoiy-siyosiy muhitida Fayzulla Xo'jayev qarashlari va jadidchilik faoliyati, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining g'oyaviy asoslari hamda mafkuraviy tamoyillari tadqiq etilgan.

Jadidlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; xalqni savodsizlikdan chqarish; qobiliyatli va harakatchan yoshlarni xorijiy ilg'or mamlakatlarning o'quv muassasalariga o'qishga yuborish; ma'rifiy jamiyatlar, teatr truppalarini tuzish; gazeta va jurnallar chop etishni yo'lga qo'yish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini oshirish; milliy o'zlikni anglashga undash; qoloqlikdan qutulish, diniy xurofotdan ozod bo'lish; ma'rifatni tarqatish; yangi xalqchil demokratik tuzum o'rnatishdan iborat bo'lgan.

Tadqiqotchi fikricha, 1908-yilda Buxoroda “Tarbiyayi atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyati a'zolari iqtidorli yoshlarni Turkiyga o'qishga jo'natdilar. Ularning xorijdagi ta'limi yaxshi samara berdi. 1910 yilda Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi. O'zining siyosiy talablarini ham qo'ya boshladi. Buxoro amirligida 1910-1920 yillarda jadidlar Yosh Buxoroliklar sifatida tanildilar. Buxoroda ulamolarning nufuzi juda yuqori bo'lib xalqning ularga ishonchi kuchli edi. Yosh buxoroliklarning ilk vakillari Abdulvohid Burhonov (Munzim), Mukammil Burhonov, Sadrididdin Ayniy, Usmon Xo'ja (Usmonxo'ja Po'latxojayev), Otaullo Xo'jayev, Ahmadjon Abdusaidov (Hamdiy), Homidxo'ja Mehriy, Muso Saidjonov, Mirzo Siroj Hakimlar bo'lib, keyingi faoliyatlarida Fayzulla Xo'jayev, Mirzo Muhiddin Mansurovlarning tashkilotidagi ma'rifatparvarlik harakatlari siyosiy jaroyonlar bilan uyg'unlashib ketgan¹³.

F.Xo'jayevning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi islohotchilik g'oyalari, siyosiy dunyoqarashi, ijtimoiy hayotning muammolarini yechish qaratilgan kurashlarida uning 1913-yildan “Yosh buxoroliklar” harakatiga qo'shilishi sabab bo'lgan. Buxoro davlatida siljishlar va jarayonlarning bo'sh kechganligi va ularni jonlantirish zarurati uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga to'g'ri baho berish bilan bog'liq

¹³ Ражабов.Қ.Ўзбекистон XX асрда.Биринчи жилд (1900-1939). - Тошкент: “Фан”, 2024. – Б.129.

bo'lgan. Uning g'oyalari atrofida tadbirkor tijoratchilar, hunarmandlar, dehqonlar jamiyatni boshqarish tuzimini yangi omillarga moslashtirish kerakligi nuqtayi nazaridan yondashgan bo'lsalar, harakatning asosiy qismini tashkil qilgan ziyolilar, ayniqsa jadid ziyolilari ma'rifatchilik, maorif ishlarini tub yangi yo'ldan rivojlantirish kerakligini targ'ib qildilar. U xalqni ozodlikka mustaqil hayot kechirishga ijtimoiy tenglik, adolat g'oyalari uchun kurashishni o'zining insoniy burchi deb bilganligini o'sha davr nashrlari, manbalarida keltirilgan¹⁴.

Tadqiqotda Buxoroning o'ziga xos ijtimoiy muhitida sodir bo'lgan g'oyaviy va mafkuraviy kurashlar, jadidlar va qadimchilar, amirlik hamda amirning tarafdorlari, Chor Rossiyasi siyosati, Buxorodagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy hayot ularning o'zaro ta'siri va bog'liqligi ochib berilgan. Buxoroning ma'rifatparvar jadidlari vaziyatni to'g'ri anglagan holda millatni bu tanazzuldan olib chiqish maqsadiga yo'naltirilgan asosiy g'oyalari ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, ta'limni isloh qilish, millatni uyg'otish, uning oyoq osti qilingan qadri va qadriyatlarini tiklashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etganligi qiyosiy tahlil qilingan.

Dissertatsiyada Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarining g'oyaviy asoslari quyidagicha keltirilgan:

- umumiy jadidchilikka xos bo'lgan – ma'rifatparvarlik (ta'lim tizimi, savodxonlik, yangicha fikrlash);

- o'zlikni anglash (inson qadri, ijtimoiy adolat, tenglik, ayollar haq huquqlari, so'z erkinligi va siyosiy ong)

- millatparvarlik (millatni uyg'otish, barcha qatlam vakillarini teng ko'rish, millatni kamsitishga yo'l qo'ymaslik)

Mafkuraviy tamoyillari esa:

- *Ma'rifatchilikka asoslangan mafkuraviy tamoyil* – bilim, ilm, tarbiya va ta'limga asoslangan bo'lishi, eskicha o'qitish usullaridan tubdan farq qiladigan jadid maktablarini ochish orqali ma'rifatchilikni targ'ib etish, savodsizlikka, jaholatga qarshi kurashga birlashib harakat qilsihni nazarda tutgan;

- *Milliy o'zlikni anglash tamoyili* – turli millatlar xalqlarni o'zligini anglashga, bir xalq bo'lib birlashishga, o'z tarixiy negizlariga qaytarishga, milliy ozodlikni targ'ib qilishga asoslangan;

- *Adolatli boshqaruv ya'ni adolatparvarlik tamoyili* – turli zulm va zo'ravonlikni tugatish, ijtimoiy adolatni tiklash va adolatni boshqaruvni yo'lga qo'yish, xalqning og'irini yengil qilsih maqsadlari mujassam bo'lgan;

- *Zamonaviylik va taraqqiyotga intilish tamoyili* – dunyoning ilg'or mamlakatlariga yoshlarni o'qishga jo'natish, Yevropavning ko'zga ko'ringan davlatlari tajribalarini o'zlashtirish, texnika texnologiyalarni o'rganib mamlakatni taraqqiy ettirish;

- *Ijtimoiy tenglik tamoyili* - jamiyatdagi har qanday tabaqalanishga, insonlarni, mansab, nasab va boylik asosida ajratishga qarshi, har bir insonning huquqlari, qadri, ilm o'rganishi, imkoniyatlari teng bo'lishini targ'ib qilish;

¹⁴ Karimov.R.X. Fayzulla Xo'jayev atoqli davlat va jamoat arbori. // F.Xo'jayev tavalludining 100 yilligi munosabati bilan chop etilgan to'plam. - Toshkent: "Fan", 1997. – B.14

- *Matbuot erkinligi va fikr erkinligiga erishish tamoyili* – gazeta, jurnal, adabiyot va san’at orqali xalqning ongini o’zgaritirishga, erkin fikr yuritishga undadilar, matbuotning erkinligini yoqlab chiqishdan iborat¹⁵.

Dissertatsiyada Buxorolik jadid Mirzo Sirojiddinning Yevropa va Sharqning ko‘plab shaharlarida bo‘lib, sanoat korxonalari, universitet, muzey, kutubxona va kasalxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishganini, ushbu mintaqalardagi taraqqiyotning asosi ozodlik va ilm-fan rivojida ekanligini anglagani va o‘z mulohazalarini “Tuhfayi ahli Buxoro” (“Buxoro xalqiga hadiya”) asarida qattiq achinish bilan bayon etganini tahlil qilingan. Mirzo Sirojiddin “Tuhfayi ahli Buxoro” asarida: “Butun yer yuzini ular (“Ovro‘po mustamlakachilari”) o‘z tasarruflariga olganlar. Biz ularning qo‘l ostilarida qolganmiz. Biz iflos ko‘cha va bozorlarda yashab kasb qilishimiz va quyosh ostida ziroat bilan shug‘ullanishimiz kerak va qo‘lga kiritilgan boyligimizni ularning san‘atlari evaziga berib, o‘zimizni gadoy qilishimiz kerak. Bolalarimiz libosidan boshlab to o‘liklarimizning kafanigacha Ovro‘podan keladi Endi biz muhtoj bo‘lmay, kim bo‘lsin. Ular biz-osiyoqliklarning boyliklarini olib ketar ekanlar, ular boy bo‘lmay, kim boy bo‘lsin? Axir biz ham ularday odammiz. Biz ham yaxshi uylarda yashashni orzu qilamiz”¹⁶, - degan fikr va qarashlarini tahlil qilib, xalqning achinarli turmushi, millat kelajagi bo‘lgan yoshlarning taqdiri uchun qayg‘urayotgan millatparvar Mirzo Sirojiddinning insonparvarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy adolat, tenglik, ozodlik haqidagi g‘oyalarning umuminsoniy ahamiyatini ochib berilgan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosiy o‘rinni egallaydi. Ularning nazarida ilm-u ma’rifat xalq ommasi tomonidan o‘zlashtirib olingandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanadi. Demak, uning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini falsafiy asosini millat taqdirini, uning ozodlikka erishishini ma’rifatchilikda deb bilganligidadir. Ular o‘z g‘oyalari amalga oshirish uchun, eng avvalo, ijtimoiy harkatlar, tashkilotlar, siyosiy partiyalar to‘za boshlashgan va ularning siyosiy partiyalari faoliyatlari orqali namoyon bo‘lgan. Buxoro jadidlari millatning ma’naviy va siyosiy uyg‘onishini ta’minlashga qaratilgan jamiyat modelini ishlab chiqdilar. Jadidlar mafkuraviy qarashlarining asosida inson qadrini ulug‘lash, adolat va tenglikni jamiyatning bosh me’yoriga aylantirish, ilm va ta’limni taraqqiyotning yagona vositasi deb bilish kabi fundamental tamoyillar mujassamdir. Bu tamoyillar amaliy hayotda xalq ongini uyg‘otish, jamiyatda siyosiy mas’uliyatni kuchaytirish, milliy manfaatlarni himoya qilish hamda demokratik boshqaruv madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan

